

O‘ZBEKISTON AHOLISINING HUDUDIIY JOYLASHUVI**Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi****Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti****geografiya yo‘nalishi bakalavr talabasi****davletyorovadilafruz@gmail.com****Telefon raqami: +998200162502****<https://doi.org/10.5281/zenodo.22121308>**

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston aholisining hududiy joylashuvi, aholining viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi hamda aholi zichligidagi farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholi joylashuviga ta‘sir etuvchi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar yoritilgan. Shuningdek, urbanizatsiya va ichki migratsiya jarayonlarining aholi hududiy joylashuviga ta‘siri ochib berilgan. Maqola O‘zbekistonning demografik holatini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston aholisi, hududiy joylashuv, aholi zichligi, urbanizatsiya, migratsiya, demografik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, mehnat resurslari.

Abstract: This article analyzes the territorial distribution of the population of Uzbekistan, the distribution of the population by regions, and differences in population density. The study covers natural, geographical, socio-economic and historical factors affecting the population distribution. It also reveals the impact of urbanization and internal migration processes on the territorial distribution of the population. The article is of significant scientific and practical importance in studying the demographic situation of Uzbekistan.

Keywords: Population of Uzbekistan, territorial distribution, population density, urbanization, migration, demographic processes, socio-economic factors, labor resources.

Kirish. Aholi hududiy joylashuvi va taqsimoti – mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi. Hududiy joylashuv, ya‘ni aholining qayerda yashashi va qanday taqsimlanishi, iqtisodiy faoliyat, transport tarmoqlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, aholi zichligi va uning hududlar bo‘yicha farqlanishi rivojlanish strategiyalarini belgilash, resurslardan samarali foydalanish va demografik siyosatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Aholining hududiy joylashuvda eng muhim tabiiy omillardan biri – suv resurslaridir. Suv inson hayoti va xo‘jalik faoliyati uchun ajralmas resurs hisoblanadi. Oziq-ovqat yetishtirish, sanoat ishlab chiqarish, uy xo‘jaligi va ichimlik suvi ta‘minoti – bularning barchasi suv bilan bog‘liq. Shu sababli, aholining ko‘pchilik qismi suv manbalariga yaqin hududlarda to‘planadi. O‘zbekiston sharoitida bu omil ayniqsa muhimdir. Mamlakatimizning katta qismi cho‘l va yarim cho‘l hududlardan iborat bo‘lib, tabiiy yomg‘ir miqdori juda kam. Shu bois, aholi asosan daryo vodiylari, suv omborlari va sun‘iy sug‘orish tarmoqlari mavjud bo‘lgan hududlarda yashaydi. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo vodiylari, Farg‘ona vodiysi kabi suvga boy hududlar mamlakatimizdagi aholi zichligi eng yuqori joylar hisoblanadi.

Quyidagi diagrammada O‘zbekiston Respublikasida aholi zichligi yillar davomida qanday o‘zgarib borganligi ko‘rsatilgan. Ushbu ma‘lumotlar hududiy demografik jarayonlarni va aholi sonining o‘sish sur‘atlarini tahlil qilish imkonini beradi.

2021–2025 yillar davomida O‘zbekistonda aholi zichligi doimiy ravishda ortib bormoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021 yilda aholi zichligi 78,1 kishi/km² bo‘lgan bo‘lsa, 2025

yilda u 84,8 kishi/km² ga yetgan. Bu besh yil ichida zichlik 6,7 kishi/km² ga oshgan, ya'ni har yili o'rtacha 1,34 kishi/km² o'sish kuzatilgan.

Аҳоли zichligi, 1 кв.км га тўғри келадиган аҳоли сони



1-rasm. Aholi zichligi bo'yicha statistika

1-rasmda ko'rinib turibdiki, o'sish tendensiyasi doimiy va barqaror bo'lib, keskin pasayish yoki to'siqlar mavjud emas. Bu shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholisi muntazam ravishda ko'paymoqda va hududiy joylashuvni tahlil qilishda aholi zichligini hisobga olish muhimdir. Bunday o'sishning sabablari sifatida tabiiy ko'payish, tug'ilishning yuqori darajasi va migratsiya jarayonlarini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, hududiy taqsimot tahlili shuni aniqlashga yordam beradi: ba'zi hududlarda zichlik yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda past bo'lishi mumkin, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish strategiyalarini belgilashda muhimdir.

Quyida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy birliklari bo'yicha aholi zichligi jadvali keltirildi. Ushbu jadvalda har bir hududning maydoni, aholi soni va aholi zichligi kabi asosiy ko'rsatkichlar tizimli ravishda ko'rsatilgan. Jadval hududlararo farqlarni aniqlash, aholi taqsimoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq demografik holatni o'rganish uchun qulay asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida 2025 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra aholining hududiy joylashuvi yanada zichlashganini kuzatish mumkin. Mamlakat bo'yicha hisoblanganda, har bir 1 kvadrat kilometr maydonga o'rtacha 84,8 nafar aholi to'g'ri

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi zichligi

T/r	Ma'muriy birliklar	Maydoni, ming km.kv	Aholisi, ming kishida	Zichligi
1	Qoraqalpog'iston respublikasi	166.6	2 046.9	12.3
2	Andijon	4.27	3 507.2	821.4
3	Buxoro	39.4	2 099.0	53.2
4	Farg'ona	6.8	4 204.3	618.3
5	Jizzax	21.2	1 559.9	73.6
6	Namangan	7.44	3 177.1	427
7	Navoiy	111	1 108.6	9.9
8	Qashqadaryo	28.6	3 697.6	129.3
9	Samarqand	16.8	4 360.1	259.5

10	Sirdaryo	4.28	942.6	220.2
11	Surxondaryo	20.1	2 994.1	148.9
12	Xorazm	6.05	2 059.1	340.3
13	Toshkent vil	15.3	3 148.6	205.7
14	Toshkent shahri	0.435	3 164.0	7273.6

kelmoqda. Bu ko'rsatkich aholining umumiy soni oshib borayotgani va hududlardan foydalanish darajasi ortayotganini ifodalaydi. Aholi zichligining bunday darajaga yetishi tabiiy o'sish, shaharlar kengayishi va migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur ko'rsatkichni 2024 yil 1 oktyabr holati bilan solishtirganda sezilarli o'zgarish mavjudligini ko'rish mumkin. O'sha davrda mamlakat bo'yicha 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 83,2 nafar aholi to'g'ri kelgan edi. Demak, bir yil davomida aholi zichligi 1,6 kishiga oshgan. Bu o'sish aholining son jihatdan ko'payishi bilan bir qatorda, ayrim hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining tezlashgani va iqtisodiy faol hududlarga aholi oqimining kuchaygani bilan ham izohlanadi.

Tarixan aholi mamlakatimizning sug'oriladigan voqa va vodiylarida zich joylashgan. Chunonchi, bu ko'rsatkich Farg'ona, Namangan, Xorazm viloyatlarida ancha yuqori. Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati O'zbekiston hududining 61,9 foizini tashkil qilsa-da, bu yerda mamlakat aholisining atigi 8,7 foizi yashaydi; shu bois, ayni ana shu ikki ma'muriy birlik respublika aholisi joylashuvining o'rtacha ko'rsatkichiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Buxoro va Jizzax viloyatlarida ham aholi zichligi uncha yuqori emas, Surxondaryo va Qashqadaryo esa u o'rta ko'rsatkichdan biroz yuqori. Biroq shunga qaramasdan, hatto bu hududlarning ham ichki, qadimdan sug'oriladigan rayonlarida (masalan, Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Yakkabog' tumanlarida) aholi ancha zich joylashgan. Umumiy tarzda respublika aholi joylashuvi ko'p jihatdan gidrografik shaxobchalar – sug'oriladigan daryo va irrigatsiya inshootlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, yirik shaharlar, ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasi doirasidagi qishloq tumanlarida ham aholi joylashuvi juda zich.

Hududiy aholi joylashuvi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va turli hududlarda hayot sifatini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Aholining ma'lum bir hududda to'planishi yoki tarqalishi mehnat resurslari samaradorligi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va infratuzilmani rivojlantirish xarajatlarini bevosita belgilaydi. Iqtisodiy jihatdan, aholisi zich hududlar, ayniqsa urbanizatsiya darajasi yuqori markazlar, mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy drayveri hisoblanadi. Bu hududlarda ishchi kuchi va iste'molchilarning to'planishi miqyos samarasini oshiradi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, innovatsiyalar tezroq tarqaladi va turli xizmatlar samaraliroq taqdim etiladi. Yirik shaharlar va aglomeratsiyalar yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat, texnologiya va xizmat sohaslarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi va natijada mamlakat yalpi ichki mahsulotining katta qismi aynan shu hududlarda hosil bo'ladi. Shu bilan birga, aholining notekis taqsimlanishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kuchaytiradi. Aholisi siyrak hududlarda mehnat resurslari yetishmasligi, infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi va investitsiyalar jalb qilishning qiyinligi sababli iqtisodiy rivojlanish sekinlashadi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni oshiradi va markaziy shaharlarga migratsiya oqimini kuchaytiradi, natijada transport muammolari, ekologik bosim va periferik hududlarda qarovsiz qolish kabi muammolar yuzaga keladi. Ijtimoiy jihatdan aholi taqsimoti ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va turmush sharoiti

xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Aholining to‘planishi ijtimoiy infratuzilmani bir joyga jamlash va uni qulay qilish imkonini beradi. Shu sababli hukumatning hududiy rivojlanish siyosati aholining ratsional joylashuvini ta’minlashga va har bir fuqaro yashash joyidan qat’i nazar sifatli xizmatlardan foydalanishini kafolatlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Umuman olganda, aholining hududiy joylashuvi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada oshirish va barcha fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish uchun boshqarilishi zarur bo‘lgan asosiy omil hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A. Mavlonov "O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" - Buxoro: 2008.
2. A.Soliyev "O‘zbekiston geografiyasi" Toshkent "universitet"-2014.
3. Z.Tojiyeva "Aholi geografiyasi" – Toshkent: 2019.
4. Xidiraliyev K.E , Yo‘ldashev A.A, Ibaydullayev A.U. TERRITORIAL FEATURES OF POPULATION SETTLEMENT// "Экономика и социум" №10(136)-2 2025
5. O‘zbekiston respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari stat.uz sayti
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/> sayti